

Date: 13th June-2025

MATN VA INTERMATNLIK: SEMIOTIK QARASHLAR VA SHARQ ADABIYOTI MISOLIDA

Xo‘jamurodova Iroda Anvar qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Badiiy matn harakati faqat o‘zining ichki sath chegaralarida cheklanib qolmaydi. Uning asosiy mohiyati — doimiy harakat, ilgarilashga intilishidadir. Ushbu harakat, avvalo, matn tarkibidagi belgilar tizimi — paradigmatic, sintagmatic munosabatlar hamda binar oppozitsiyalarning o‘zaro aloqasi natijasida shakllanadi. Adabiy jarayonning tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan har bir matn o‘z-o‘zicha mavjud bo‘lmay, boshqa matnlar bilan uzviy bog‘liq holda mavjud bo‘ladi. Yangi yaratilayotgan matnlar o‘tmishdagi matnlarning tasvir, ifoda va kod (belgi) tizimini zamonaviy tafakkur va tarixiy-madaniy sharoitlar asosida qayta ishlab, o‘zida aks ettiradi. Bu esa har bir matnni intermatn sifatida talqin qilish imkonini beradi. Semiotika va strukturalizm singari nazariy yondashuvlar shakllanmasdan avval ham matnlararo aloqadorlik ijodkorlar tomonidan sezilgan va badiiy tajribalarda ifodasini topgan. Mazkur maqolada Alisher Navoiy, Nizomiy, Dehlaviy dostonlari o‘rtasidagi matniy bog‘lanishlar, shuningdek, Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhor ijodidagi belgilar tizimi orqali yuzaga kelgan intermatnlik hodisalari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: matn, intermatnlik, semiotika, paradigmatica, sintagmatica, binar oppozitsiya, matnlararo aloqa, madaniy kod, ritmik struktura, tasvir, ifoda.

Аннотация: Движение художественного текста не ограничивается лишь его внутренними структурными рамками. Его сущностная характеристика заключается в постоянной динамике и стремлении к развитию. Такое движение формируется, прежде всего, благодаря взаимодействию знаковых систем внутри текста — парадигматических и синтагматических отношений, а также бинарных оппозиций. В процессе историко-литературного развития каждый текст не существует изолированно, а проявляется как результат сложных межтекстовых связей. Новые литературные произведения переосмысливают и адаптируют систему образов, выражений и кодов предыдущих текстов в соответствии с современным мышлением и социокультурными условиями. Это позволяет рассматривать любой текст как интертекст. Ещё до появления теоретических направлений, таких как семиотика и структурализм, межтекстовые связи осознавались творцами и находили выражение в художественном опыте. В настоящей статье анализируются межтекстовые связи между поэмами Алишера Навои, Низами и Дехлеви, а также явления интертекстуальности в произведениях Абдуллы Кадыри и Абдуллы Каххара через систему знаков.

Ключевые слова: текст, интертекстуальность, семиотика, парадигматика, синтагматика, бинарная оппозиция, межтекстовая связь, культурный код, ритмическая структура, образ, выражение.



Date: 13th June-2025



Annotation: The dynamics of a literary text are not confined to its internal structural boundaries. Its essential nature lies in constant movement and a tendency toward progression. This motion is primarily shaped by the interaction of sign systems within the text — including paradigmatic and syntagmatic relations, as well as binary oppositions. Throughout literary history, no text exists in isolation; rather, it emerges through complex intertextual connections. New texts reinterpret and reconfigure the imagery, expression, and code systems of prior works in accordance with contemporary thought and socio-cultural contexts. This process enables each text to be viewed as an intertext. Even before the theoretical emergence of semiotics and structuralism, such intertextual relations were intuitively perceived by creative figures and reflected in their literary practice. This article explores the intertextual relationships among the works of Alisher Navoiy, Nizamiy, and Dehlaviy, as well as the manifestations of intertextuality through the system of signs in the writings of Abdulla Qodiriy and Abdulla Qahhor.

Keywords: text, intertextuality, semiotics, paradigmatics, syntagmatics, binary opposition, intertextual connection, cultural code, rhythmic structure, imagery, expression.

Badiiy matnning harakati hech qachon faqat o'zining sathi doirasi bilan cheklanmaydi. Uning mohiyatini tashkil etuvchi asosiy xususiyat — doimiy harakat va ilgarilashga intilishdir. Bunday harakat bevosita yuzaga kelmaydi: u badiiy matn makonida mavjud bo'lgan belgilar tizimi, ya'ni paradigmatic, sintagmatic aloqalar hamda binar oppozitsiyalar o'rtasidagi murakkab munosabatlar asosida shakllanadi. Bu munosabatlar matn doirasida ko'p qatlamli semantik dinamika hosil qiladi. Shu bilan birga, matnlaro adabiy-poetik bog'lanishlar semiotika fanida intermatnlik (intertekstuality) deb ataladi. Mazkur tushuncha 1967-yilda psixoanalitik va semiotik olim Yuliya Kristeva tomonidan fanga tatbiq etilgan bo'lib, u matnlar o'rtasidagi o'zaro ishora, bog'lanish va o'zlashuv holatlarini tavsiflashga xizmat qiladi. Garchi "intermatnlik" atamasini ilk bor Kristeva ishlatgan bo'lsa-da, uning nazariy manbalari ko'plab olimlar tomonidan M.M. Baxtinning dialogik tafakkur konsepsiyasigacha olib boriladi.

Baxtinning "dialogik kontekstda birinchi va so'nggi so'z yo'q: unda hech qanday chek-chegara mavjud emas – u nihoyasiz o'tmish va nihoyasiz kelajakka qarab keta oladi..." [4,56] degan fikrlari intermatnlik mohiyatini anglashda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Unga ko'ra, o'tmishdagi matnlar doimiy ravishda yangi matnlarda turli shakllarda, yangilangan mazmunda vujudga keladi. Bu jarayon tasvir, ifoda va belgilar tizimi orqali amalga oshadi va matn har doim boshqa matn bilan muloqotda bo'ladi. Baxtin bu yerda matnlar orasidagi uzviy semantik aloqani "dialog" shaklida tushunadi va ushbu aloqaning davomiyligini ta'kidlaydi. Har bir matn nafaqat o'z zamoni, balki butun madaniy kontekst bilan bog'liq holda shakllanadi.

Mazkur masalaga g'arbiy semiotika va adabiyotshunoslikda Rolan Bart ham chuqur e'tibor qaratgan. U "Har bir matn intermatn hisoblanadi, unda boshqa matnlar turlicha darajada, ozroq yoki ko'proq tanish ko'rinishda – madaniy kontekstlar orqali paydo bo'ladi" [5,102] deb yozadi. Uning fikricha, matn — bu o'ziga xos "ixtiyoriy iqtiboslar matosi" bo'lib, unda madaniy kodlar, formula va ritmik strukturalar, ijtimoiy nutq

Date: 13th June-2025

elementlari uyg'unlashadi. Shuningdek, Bart intermatnlikni konkret manba yoki ta'sir doirasida chegaralab bo'lmashligini, aksincha, bu hodisa matnga ongli yoki ongsiz tarzda singdirilgan umumiy madaniy axborot sathini ifodalashini ta'kidlaydi.

Rolan Bart intermatnlikni izohlar, ko'chirma yoki muayyan manba orqali emas, balki yashirin, qo'shtirnoqsiz, tanib bo'lmash darajadagi sitatalar orqali yuzaga keluvchi matnlararo muloqot sifatida talqin etadi. Bu qarashlari intermatnlikning umumiy va keng qamrovli mohiyatini ochib beradi. Garchi uning qarashlari ba'zi olimlar tomonidan haddan tashqari umumlashtirilgan yoki "radikal" deb baholangan bo'lsa-da, bu yondashuv matnlarni mustaqil, ammo bog'liq semantik birliklar sifatida idrok etishga yo'l ochadi. Jumladan, fransuz tadqiqotchisi Natali Pyege-Gro Bart qarashlarini tanqid qilib, intermatnlikni har qanday o'ziga xoslikdan mahrum qilish deb baholagan. Biroq, V.E. Chernyavskaya va boshqa olimlarning fikricha, Bart intermatnlik konsepsiyasida har bir matn o'ziga xos individual badiiy struktura sifatida ham mavjud bo'lishi mumkin.

Aslida, Baxtin va Bart qarashlarini qiyosiy tahlil qilganimizda, ularning yondashuvlari umumiy g'oyada — matnlararo dialog va o'zaro ta'sir masalasida yaqinligini ko'ramiz. Baxtinning "so'zning oxiri yo'q" degan konsepsiyasi Bartning "matn – bu doimiy iqtiboslar matosi" degan g'oyasi bilan mushtaraklikda, har bir yangi matnning oldingi madaniy qatlamlar bilan semantik aloqadorligini namoyon qiladi.

Sharq adabiyoti tarixida intermatnlik hodisasi ko'plab namunalarda aniq ko'zga tashlanadi. Xususan, Alisher Navoiy o'zining "Xamsa"sida xalq og'zaki ijodi namunalaridan bo'lgan qadimiy afsonalarni qayta poetik talqinda tasvirlagan. U o'zining "Layli va Majnun" dostonida quyidagi misralar bilan bu holatni ochiq e'tirof etadi:

"Yozmoqda bu ishq jovidona,
Maqsudim emas edi fasona.
Mazmunig'a bo'ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli..." [1,211]

Bu misralarda shoir qadimiy afsonani shunchaki takrorlash emas, balki uni yangicha mazmunda, o'z tafakkuri va zamon talablari asosida ifodalashni ko'zlaganini bildiradi. Bu yondashuvni Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviylarning "Xamsa" asarlarida ham kuzatish mumkin. Har bir xamsanavis qadimgi syujet asosida o'zining badiiy-estetik kontsepsiyasini yaratgan, shu tariqa matnlararo muloqotni zamonaviy badiiy tafakkur talablari asosida boyitgan.

Xulosa qilib aytganda, intermatnlik — bu faqatgina matnlar o'rtasidagi formal aloqa emas, balki ularning mazmuniy, belgilar tizimi, madaniy kodlar va semantik o'zaro ta'sirlar asosidagi murakkab bog'liqligidir. U matnlarni yopiq tizim sifatida emas, balki doimiy dialogda va uzluksiz rivojlanishdagi ochiq tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi. Bu yondashuv nafaqat g'arbiy nazariya, balki Sharq adabiy tafakkurida ham o'z ifodasini topgan, ijodkor tafakkurining uzluksizligiga asos bo'lgan asosiy tamoyillardan biridir.



Date: 13th June-2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2006.211-b.
2. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества.– М.: Искусство, 1986.
3. Ролан Барт. Избранные работы.Семиотика. Поэтика. – Москва: Прогресс, 1989. С. 418.
4. Р.А. Саидова. Бадий матнда белги муносабатлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)диссертацияси. –Бухоро, 2020.93-94-б.
5. Saidova, R. A. (2020). SEMIOTIC SQUARE AND BINARY OPPOSITION. Theoretical & Applied Science, (2), 201-205.

